

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 - yil yanvar

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 381,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 176,4%ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 209,3 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2019 - yil yanvar oyida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 381,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,2%ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (26,0%) tashkil etadi.

2019 - yil yanvar oyida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan), %



■ Aloqa va axborot-lashtirish xizmatlari ■ Moliyaviy xizmatlar ■ Boshqa xizmatlar
■ Transport xizmatlari ■ Savdo xizmatlari

2019 - yil yanvar oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning yanvar oyida oldingi yilning yanvariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (15,0 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (8,7 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (28,3 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019 - yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	381,0	114,2
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	23,6	97,0
moliyaviy xizmatlar	64,5	176,4
transport xizmatlari	98,1	101,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	94,4	101,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	9,4	113,4
savdo xizmatlari	99,1	104,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	12,3	102,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	17,7	175,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	7,2	118,5
ijara xizmatlari	8,7	103,0
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	14,7	111,2
shaxsiy xizmatlar	12,3	100,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3,8	103,9
boshqa xizmatlar	9,6	109,1


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2019 - yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019 – yil yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (176,4%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (175,0%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (118,5%), yashash va ovqatlanish xizmatlari (113,4%) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019 - yil yanvar oyida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi %.




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019 - yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 99,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 26,0%ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 15,0 mlrd. so'mga oshdi.

2019 - yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 79,6%ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,6%ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 7,8%ni egallaydi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 64,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 176,4%ni tashkil etdi.


2019 - yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi,%



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (93,5%) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 75,9% ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 24,1%ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi,%




2018-yil yanvar oyi bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati esa 113,4%ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019-yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 17,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidag iulushi 4,6%ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar oyi bilan taqqoslaganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 8,5 mlrd. so'mga va o'sish sur'ati esa 54,5%ga oshdi

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019 - yil yanvar oyida 209,3 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,0 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 112,3% qayd etildi.

2019 - yil yanvar oyida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



*Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi*

Mas'ul: U.Bardiyev